

SALOHIIY DOSTONLARI MANBALARINING ILMIY-MONOGRAFIK TAVSIFI

Shodiyeva Surayyo Salohiddin qizi

Turon universiteti o'qituvchisi

Amonov Yusuf Hamidovich

Dehqonobod tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII asrda yashab ijod etgan Salohiddin Salohiyning "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayxo" nomli dostonlarining kotiblar tomonidan qachon ko'chirilganligi, qayerda, qaysi inventar ostida, qay ahvolda saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur ma'lumotlarning ahamiyatlilik darajasi shundaki, ular asl manbalar asosida tabdil qilinib, bir tizimga solinib ilm ahliga namoyon qilindi. Natijada esa Salohiy dostonlarining eng to'liq, mukammal va qadimiy nusxasi matnshunoslik va manbashunoslik sohasidagi bo'shliqlarni to'ldirishga yordam berishi, shubhasiz.

Annotation: This article provides information on when, where, under which inventory, and in what condition the epics "Gul va Bulbul" ("Flower and Nightingale") and "Yusuf va Zulaykha" of Salahiddin Salahi, who lived and created in the 18th century, were copied by scribes. The importance of these data is that they were transformed based on the original sources, put into a system and presented to the people of science. As a result, there is no doubt that the most complete, perfect and ancient copy of Salahi's epics will help to fill the gaps in the field of textual studies and source studies.

Kalit so'zlar: Salohiy, "Gul va Bulbul", "Yusuf va Zulayxo", manba, toshbosma, kotib, inventar, tasavvufiy asar, Buxoro, Samarqand, Tojikiston.

Key words: Salahi, "Gul and Bulbul", "Yusuf and Zulaykha", source, lithograph, scribe, inventory, mystical work, Bukhara, Samarkand, Tajikistan.

Kirish. Qadimiy manbalarni o'rganishning eng samarali usuli bu o'sha asarning aynan o'zini tadqiq etishdir. Har qanday manbaga ilmiy yondashish, manbashunoslik nuqtai nazaridan baholash matn tarixini tadqiq qilishda alohida o'rin tutadi. Manbalarning batafsil va to'g'ri tahlilisiz badiiy obidaning ahamiyatini aniqlash qiyindir. Matnshunos Nurboy Jabborov fikricha: "...adabiyotimizning har bir yirik namoyandasi ijodi misolida muhim nazariy muammo sanalgan matn tarixi masalasi jiddiy tadqiq etilishi zarur. Busiz matnshunoslik rivojini tasavvur ham etib bo'lmaydi"[1: 99]. Rus matnshunosi D.S.Lixachev matn tarixini o'rganishning ahamiyatini quyidagicha ta'kidlaydi: "Asarga aloqador hamma masalalarni faqat

to'liq (yoki imkon darajasida to'liq) o'rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma'noda kashf etish imkonini beradi"[2: 90].

Adabiyotlar tahlili. Salohiddin Salohiy qalamiga mansub "Gul va Bulbul" dostonining bir nechta toshbosma nusxalari mavjud bo'lib, ular Respublikamizning turli viloyatlarida saqlanmoqda. Jumladan, O'zRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining asosiy fondida 343, 576, 577, 578, 4002, 4248, 4249, 4250, 9593, 9594, 9595, 11021, 13857, 13858, 13859 raqamli inventarlarda saqlanmoqda.

Shuningdek, dostonning yana ikkita 420 hamda 1295 raqamli toshbosma nusxalari esa Alisher Navoiy nomidagi Davlat muzeyida, SamDU Abdurahmon Jomiy nomidagi ilmiy kutubxonasining nodir kitoblar bo'limida №392093, 823860, 824415 raqamli inventarlari hamda Buxoro davlat muzey qo'riqxonasida №580, 35458 inventarlari saqlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada, asosan, tarixiy-metodologik metod, avtobiografik metod va bir qancha adabiy-tarixiy manbalardan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Quyida ushbu nusxalar haqidagi eng asosiy ma'lumotlarni keltirishni joiz topdik.

1. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fond xazinasidagi 343 raqamli toshbosma nusxa.

Ushbu manba yaxshi saqlangan bo'lib, matni ikki ustunda O'rta Osiyo qog'oziga nasta'liq xati bilan qora siyohda husnixat bilan ko'chirilgan. Qattiq, ko'k karton bilan muqovalangan. Asar voqealariga mos holatda rasmlar ham ishlangan bo'lib, hajmi 71 varaqdan iborat. Kitobning o'lchami: 22x14.

Asarning nomi kitobning ustiga "Gul va Bulbul dostoni bo tasviri" deb nomlangan. Ko'chirilgan joyi, matbaasi hamda homiylik qilgan shaxsning ismi esa kitob nomining ostida keltirilgan: "Bo ehtimomi mulla Zokir qori xarajoti bilan Toshkent shahrinda G'ulomi matbaa xonasida tab' qilindi".

Asarning dastlabki sarlavhasi quyidagicha ifodalangan: "Ammo roviyon axboru noqilon osor (roviylarning xabar va naql qilishicha), Bulbulni Qizil Gulg'a oshiq bo'lg'oni andog' rivoyat qilurlarki, Sabo Bulbulg'a Qizil Gulni ta'rifini qilib, Bulbul Qizil Gulg'a oshiq bo'lg'on ekoni.

Boshlanma bayt:

Ikovlon, ey ko'ngil, hamdam bo'loli,

Safoni Gul bila Bulbul qiloli.

Toshbosmaning tugallanishi esa forscha quyidagi baytlar bilan tamomlangan:

Har ki xond duo tama'garam,

Z-on, ki man bandai gunahgoram.

Arze naqshest, k-az mo boz monad,
Ki hastiro namebinam baqoyi.
In kitob ro'zi panjshanbe tamom,
Shud ba tavfiqi Xudoyi "La Yanom".

Ushbu baytlarning ostida, uchburchak chizmaning ichida, ko'chirilgan sana va kotibning ismi keltirilganligi ma'lum: "Tammatul kitob biavn al-Malik al-Vahhob. 1324."

Yuqoridagi parchadan ma'lumki, bu manbani al-Malik al-Vahhob hijriy 1324 (mil.1905) yilda ko'chirgan. Ushbu kitobning aynan mana shunday nusxasi O'zFA SHI asosiy fondida inv.9594 raqami ostida saqlanmoqda.

2. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fond xazinasidagi 576 raqamli toshbosma nusxa.

Matn ikki ustunda joylashtirilgan bo'lib, qizil, yupqa O'rta Osiyo qog'oziga chiroyli nasta'liq xatida qora siyohda kitobat qilingan. Naqshli qalin karton bilan muqovalangan. Hajmi: 71 varaq. O'lchami: 24x15.

Kitobning birinchi, doston nomlanish betining eng pastki qismida, asarning ko'chirilgan yili, nashr etilgan joyi va kim tomonidan kitob holiga keltirilgani bayon qilingan: 1324 (milodiy 1905). "Mashhurdurkim, janobi Maxdum al-ulamo va al-fuzalo, val-qurro mulla Muhammad Maxdumning sa'yi bilan Buxoroyi sharifga matbu' bo'lundi".

Asarning nasriy boshlanmasi ikki ustunning ichiga emas, balki tashqi tomoniga yozilgan, ya'ni asosiy matndan tushirib qoldirilgan so'zlar, ayrim baytlar va sarlavhalar hoshiyada qayd etilgan.

Toshbosmaning boshlanishi:

Ikovlon, ey ko'ngil, hamdam bo'loli,
Safoning Gul bila Bulbul qiloli.

Toshbosmaning oxiri:

Jahon kezdin ko'rolmay diytori,
Magar xush so'zga qolsa yodgori.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, mazkur bayt faqatgina mana shu nusxada uchrar ekan. Kitobning kolofonida asar ko'chirilgan yil va kotibning ismi keltirilgan: "1324. In kitob mulla Sodiqboy "Gul va Bulbul". In kitob "Gul va Bulbul" sohibi mulla mirza Sodiqxon".

Demak, mazkur toshbosma hijriy 1324-yil, milodiyda esa 1905-yilda mulla Sodiqboy ismli kishi tomonidan ko'chirilgan.

Ushbu kitobning ham aynan mana shunday nusxasi mavjud bo'lib, u O'zFA SHI asosiy fondida inv.13857, 13858, Buxoro davlat muzey qo'riqxonasida 580 hamda

SamDU Abdurahmon Jomiy nomidagi ilmiy kutubxonaning nodir kitoblar bo'limida inv. 392093 raqamlari ostida saqlanmoqda.

3. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fond xazinasidagi 577 raqamli toshbosma nusxa.

Ushbu manba "Gul va Bulbul" dostonining nusxalari ichida eng yaxshi saqlangan, mukammali hisoblanadi. Bu kitob "Gul va Bulbul bo tasviri" deb nomlangan bo'lib, uning pastki qismida qayerda va kim tomonidan chop etilgani keltirilgan: "Bo ehtimomi mulla Zafarbek Muhammad o'g'illarining xarajoti bilan Toshkent shahrida G'ulomi matbaasida tab' qilindi".

Matn ikki ustunda Samarqand qog'oziga qora siyohda nasta'liq husnixat bilan ko'chirilgan. Har bir sahifada yigirma qatorda qirq misra, ya'ni yigirma bayt ikki ustunda chiroyli va ixcham qilib joylashtirilgan. Sarlavhalar o'rtada alohida nasriy yo'lda yozilgan. Doston matni 2-a sahifadan boshlanib, 48-a sahifada kolofon bilan yakunlangan. Matn benihoya sifatli darajada qunt va ixlos bilan ko'chirilgan. Kotib bilim qamrovi keng o'ta savodli bo'lgan. Shu bois xatolarga yo'l qo'ymagan, hoshiyalarda tuzatishlar ko'zga tashlanmaydi. Asar voqealariga mos holatda rasmlar ham ishlangan bo'lib, hajmi 48 varaqdan iborat. Ushbu nusxa qolgan nusxalarga qaraganda kam hajmligining sababi matnlar siqiq hamda kichik o'lchamda yozilganligidadir. Qattiq karton bilan muqovalangan bo'lib, o'lchami: 24x15.

Toshbosmaning boshlanishi:

Ikovlon, ey ko'ngil, hamdam bo'loli,

Safoni Gul bila Bulbul qiloli.

Toshbosmaning oxiri:

Bubar, ey Sabo, payome,

Ba Gul az zaboni Bulbul:

"Falahu in sa'alti anni,

Falammo roaytani Qul"

Tarjimasi: Ey Sabo, Bulbul tilidan Gulga xabar bergin: "Agar (u uchun) men haqimda so'rasang, meni qachon ko'rganligingni unga ayt".

Mana shu tugallanma ko'pgina toshbosmalarda xuddi shunday ifodalangan. Manbada asarning yozilgan yili haqida quyidagicha ma'lumot keltirilgan:

Bu kitob ta'rix qo'yningg'a san quch,

Bo'lubon bir ming-u yuz ellik uch.

Mazkur baytdan bilinib turibdiki, asar hijriy 1153, milodiy yilda esa 1740-yilda yozilgan. Kotibning nomi esa kitobning eng oxirgi sahifasining pastki qismida, uchburchak shakldagi chizmaning ichida, keltirilgan: "Tammat-ul kitob biavn al Malik al Vahhob. Tammat".

Mazkur manbaning ayni shunday nusxasi mavjud bo'lib, u O'zFA SHI asosiy fondida inv.578, 9595 raqamlari ostida saqlanmoqda.

4. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fond xazinasidagi 4002 raqamli toshbosma nusxa.

Ushbu manba yaxshi saqlangan bo'lib, u "Gul va Bulbul bo tasviri" deb nomlangan. Ko'chirilgan joyi, matbaasi hamda homiylik qilgan shaxsning ismi esa kitob nomining ostida keltirilgan: "Bo ehtimomi mullo Mirza Ahmad Vali Mirzo Karim xarajoti-ila Toshkent shahrinda G'ulomi matbaasinda tab o'ldi".

Matn ikki ustunda Samarqand qog'oziga qora siyohda nasta'liq husnixat bilan ko'chirilgan. Har bir sahifada yigirma qatorda qirq misra, ya'ni yigirma bayt ikki ustunda chiroyli va ixcham qilib joylashtirilgan. Sarlavhalar o'rtada alohida nasriy yo'lda yozilgan. Doston matni 2-a sahifadan boshlanib, 48-a sahifada kolofon bilan yakunlangan. Matn benihoya sifatli darajada qunt va ixlos bilan ko'chirilgan. Asar voqealariga mos holatda rasmlar ham ishlangan bo'lib, hajmi 48 varaqdan iborat. Qattiq karton bilan muqovalangan bo'lib, usti nafarmon rangli qog'oz bilan bezatilgan. O'lchami: 22x13. Ushbu nusxa ham yuqorida keltirilgan inv.577 nusxadek bir xil boshlanma va tugallanishiga ega.

Mazkur manbaning xuddi shunday nusxasi O'zFA SHI asosiy fondida inv. 4249 raqami ostida saqlanmoqda.

5. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fond xazinasidagi 4248 raqamli toshbosma nusxa.

Usti qattiq, ko'k naqshli karton bilan muqovalangan. Yozuvlari esa qizil. Asar matni ikki ustunda Samarqand qog'oziga chiroyli nasta'liq xatida qora va qizil siyohda husnixat bilan ko'chirilgan. Hajmi: 48 varaq. O'lchami: 23x13.

Ushbu nusxa ham inv.577 raqamli nusxaga o'xshaydi. Ya'ni ikkala nusxaning ham boshlanishi va tugallanishi bir xilda.

6. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fond xazinasidagi 9593 raqamli toshbosma nusxa.

Ushbu nusxaning muqovasi qattiq kardonli bo'lib, ustiga qizil qog'ozda naqsh ishlangan. Matn Samarqand oq qog'oziga nasta'liq xatida husnixat bilan qora siyoh bilan yozilgan. Hajmi: 71 varaq. O'lchami: 25x14.

Kitobning boshida asarni chop ettirgan shaxs va joyning nomi keltirilgan: "Ba sa'yi ehtimomi siyodatpanoh eshon Solihxo'ja. Dar matbaai Buxoroyi sharif tab' paziraft". Ushbu matndan ko'rinib, turibdiki, mazkur kitob eshon Solihxo'janing sa'y-harakatlari bilan Buxoroyi sharifga chop qilingan.

Ushbu nusxaning boshlanma va oxirgi baytlari yuqorida keltirilgan inv.577, 578, 4248 nusxalar kabi bir xil boshlanib, bir xil yakunlangan. Ammo asar oxirida,

uchburchak shaklning ichida, asar ko'chirilgan yil (sanayi 1324) hamda qo'shimcha jumla keltirilgan:

Xabari mani balokesh birason ba on parivash,
Ki fuzun ba nuri otash bikunad juz in tahammul.

Ushbu manbaning bir nechta nusxalari mavjud bo'lib, ular O'zFA SHI asosiy fondida inv.4250 hamda inv.13859, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining nodir qo'lyozmalar va noyob toshbosmalar fondida 1295, Buxoro davlat muzey qo'riqxonasida 35458 hamda SamDU Abdurahmon Jomiy nomidagi ilmiy kutubxonaning nodir kitoblar bo'limida inv.824415 raqamlari bilan saqlanmoqda.

7. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fond xazinasidagi 11021 raqamli toshbosma nusxa.

Toshbosma so'ngidagi ma'lumotdan ayon bo'lishicha, manba hijriy 1324, milodiy 1905-yili ko'chirilgan, ammo ko'chirilgan joyi va xattotning nomi keltirilmagan.

Matn ikki ustunda, ba'zan esa ustunsiz, ya'ni 1-misra yakka holda 1-qatorda, 2-misra esa uning ostida joylashtirilgan bo'lib, sariq yupqa Samarqand qog'oziga chiroyli nasta'liq xatida qora (sarlavhalari qizil) siyohda kitobat qilingan. Matn qora ranglarda yigirma qavatli nafis ramka ichiga yozilgan. Sahifa hoshiyasi qizil rangli yaxlit ramkaga olingan. Ushbu nusxada rasmlar yo'q. Naqsh tushirilgan qizil varaqli kardon bilan muqovalangan. Muqovaning ustida faqat dostonning nomi bor, xolos. (Boshqa barcha nusxalarning boshida asar nomi, ko'chirilgan joyi, chop ettirgan shaxsning ismi keltirilgan) Hajmi: 71 varaq. O'lchami: 22x13.

Bu nusxada ham oldingi nusxalardagi kabi baytlarning boshlanishi va tugallanishi bir xil, lekin ayrim baytlardagi so'zlarda ozgina farqli jihatlar ham yo'q emas. Bu farq ko'pincha so'z va qo'shimchalarda kuzatiladi.

Inv.577 raqamli nusxaning 71 sahifasida:

Salohingga Oллоhi ayla rahmat,

Kitobi Gul-u Bulbul bo'ldi tammat.

Inv.11021 raqamli nusxaning 71 sahifasida:

Salohiyga ilohi ayla rahmat,

Kitobi Guli Bulbul bo'ldi tammat.

8. SamDU Abdurahmon Jomiy nomidagi ilmiy kutubxonaning nodir kitoblar bo'limida inv. 823860 raqamli nusxa.

"Gul va Bulbul"ning ushbu toshbosma nusxasi yaxshi saqlanmagan. Ayrim joylari yirtilganligi sababli oq qog'oz bilan yamab chiqilgan. Asar matni ikki ustunda Samarqand qog'oziga nasta'liq xatida qora siyohda husnixat bilan ko'chirilgan. Oddiy sariq karton bilan muqovalangan. Asarning nomi "Gul va Bulbul dostoni bo tasviri" deb nomlangan. Ko'chirilgan joyi, matbaasi hamda homiylik qilgan

shaxsning ismi esa kitob nomining ostida keltirilgan: “Bo ehtimomi mulla Zokir qori xarajoti bilan Toshkent shahrinda G‘ulomi matbaa xonasinda tab’ qilindi”.

Asarning sarlavhasi va boshlanishi boshqa nusxalarnikidek bir xilda ifodalangan: “Ammo roviyon axboru noqilon osor (roviylarning xabar va naql qilishicha), Bulbulni Qizil Gulg‘a oshiq bo‘lg‘oni andog‘ rivoyat qilurlarki, Sabo Bulbulg‘a Qizil Gulni ta‘rifini qilib, Bulbul Qizil Gulg‘a oshiq bo‘lg‘on ekoni.

Ikovlon, ey ko‘ngil, hamdam bo‘loli,
Safoni Gul bila Bulbul qiloli.

Toshbosmaning tugallanishi esa yuqorida takrorlangan nusxalardagi kabi:

Bubar, ey Sabo, payome,
Ba Gul az zaboni Bulbul:

“Falahu in sa‘alti anni,
Falammo roaytani Qul”

emas, balki quyidagi forscha 3 bayt bilan tamomlangan:

Har ki xond duo tama‘garam,
Z-on, ki man bandai gunahgoram.
Arze naqshesh, k-az mo boz monad,
Ki hastiro namebinam baqoi.
In kitob ro‘zi panjshanbe tamom,
Shud ba tavfiqi Xudoyi “La Yanom”.

Ushbu baytlardan keyin uchburchak chizmaning ichida ko‘chirilgan sana va kotibning ismi keltirilgan: “Tammam al - kitob biavn Almalik Alvahhob. 1324.”

Mazkur manbaning ham aynan mana shunday o‘xshashi O‘zFA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan inv.9593 raqamli nusxadir.

9. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining nodir qo‘lyozmalar va noyob toshbosmalar fondida saqlanayotgan 420 raqamli toshbosma nusxa.

Ushbu nusxa mazkur fondida saqlanayotgan 1295 raqamli manbaning aynan o‘zi. Faqat mazkur nusxa noqis (nuqsonli) bo‘lib, uning ayrim sahifalari yo‘q, varaqlar bilan muqovo birlashib turadigan joylari yirtilgan. Asar 3-betdan boshlangan:

Bu so‘z erdi nidoyi osmoni,
Ki nazm et Bulbuli Gul dostoni.

Oxiri esa inv.1295 raqamli nusxa kabi tugagan.

Salohiddin Salohiyning ikkinchi dostoni hisoblangan “Yusuf va Zulayxo”ning uchta qo‘lyozma nusxasi mavjud.

1. O‘zFA Sharqshunoslik institutining asosiy fondida saqlanayotgan inv.9691-I raqamli qo‘lyozma nusxa

Ushbu nusxa mukammal bo'lib, unda Salohiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni to'liq keltirilgan. Ushbu nusxa haqida Sharqshunoslik institutining elektron bazasida quyidagicha ma'lumot keltirilgan:

مثنوی یوسف وزلیحا	9691
Author (name) (muallifning nomi)	صلاحی
Language (tili)	persian
Subjects (adabiy turi)	Poetry
Quantity of sheets (varaqlar soni)	221 (1b-221b)
Size (hajmi)	20,5x13
Quantity of columns (ustunlar soni)	2
Paper (qog'oz)	Oriental
Date of Copying (ko'chirilgan vaqti)	1300/1882
Place of Copying (ko'chirilgan joyi)	گذر مهتر عنبر (Guzari Mehtar anbar)
Handwriting kind (yozuv turi)	Nasta'liq
Cover (muqova)	Cardboard
Cover color (muqova rangi)	Yellow
Bookbinder(muqovalovchi)	ملا محمد شادی 1276
Beginning (boshlanishi)	آلهی سینه ام گر گنج اسرار دلم چون صدف کردان کهر بار
End (tugallanishi)	شصت هم یکصد هزار * حال این تاریخ گر بود گذشته نسخه این کشید * اکرام تفضلهای از که صلاحی * سال شش است امید * علامت پر کلام رنگین این که * انجام سلک در که قیامت تا ماند آنکه
Colophon	اگر چندی خطش نبود * نیز کاتب (...؟) کتابت کرد این زنجشیش امین گیر * پی اتمام این از بهر تاریخ ... مناسب بنیش خامه * سقوطی یا غلط یا سهو یا بند * جود ناسخ قد تم هذه النسخة از دست کاتب از اصلاحش نمایند از هجرت 1300 همه کمتر در گذر مهتر عنبر در سنه حضرت خیر البشر والله اعلم بالصواب تم تم تم
	aminov

Dostonning yozilgan yili haqida qo‘lyozmaning oxirgi sahifasida shoir Salohiy tomonidan “hazor-u yak sad-u ham shast-u shash sol” [1166-hijriy yil]da nazm rishtasiga kiritilganligi haqida quyidagi baytlar keltirilgan:

Guzashta bud dar tarixi in hol,
 Hazor-u yak sad-u ham shast-u shash sol.
 Salohiy az tafazzulhoi ikrom,
 Kashid in nusxaro dar silki anjom.
 Dar in ranginkalomi puralomat,
 Umed ast on ki monad to qiyomat[11: 221].

Unga ko‘ra doston hijriy 1166, milodiy yilda esa 1752-1753-yilda yozilganligi ayon bo‘lmoqda.

Dostonning boshlanishi:
 Ilohi sinaam kun ganji asror,
 Dilamro chun sadaf gardon guharbor.

Tarjimasi:
 Iloho, ko‘ksimni ayla ganji asr
 Qalbimni ayla sadafdek guharbor.

Dostonning tugallanishi:
 Tufayli “Qissayi Yusuf payambar”,
 Bixonu bar du‘oho yodam ovar.

Tarjimasi:
 Yusuf payg‘ambar qissasini o‘qigin,
 Buning - chun meni duolaringda esla.

Mazkur qo‘lyozma hijriy 1355-yil (lekin elektron baza hamda ro‘yxatga olish titul varaqada 1300 deb ko‘rsatilgan. Bizningcha, bu hol ushbu kartatekani tuzgan ilmiy xodimning xatosi bo‘lishi mumkin), milodiy hisobda esa 1917-yil Muhammad G‘aybar nomli kotib tomonidan ko‘chirilgan. Bu qo‘lyozmada quyidagicha berilgan: “Allahuma g‘afur li-qoila va-l-kotiba va li-man nazara fiya bizazaliku karamak yo ikrom illo karamin va yo arham ar-rahimin qaddatam haza al-nusxa az dasti kotibi az hama mukarrari darguzar Muhammad G‘aybar dar sanai 1355 az hijrati Hazrati Xayrul – bashar vassalam bilsalavot tammam”[11: 222].

2. Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik bo‘limining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan inv.1922 raqamli qo‘lyozma nusxa

Mazkur nusxa Salohiyning faqat “Yusuf va Zulayxo” dostonidan iborat bo‘lib, noqis nusxa hisoblanadi (boshi va oxiridan varaqlari yo‘qolgan).

3. Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik bo‘limining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan inv. 2395 raqamli qo‘lyozma nusxa

Ushbu nusxa esa mukammal bo'lib, shoirning "Yusuf va Zulayxo" dostonidan tashqari qasida va g'azallarini ham o'z ichiga olgan. Dostonning yozilgan yili mazkur qo'lyozma nusxada ham inv.9691 kabi manbaning oxirgi sahifasida bayon etilgan. Bu tarix kitobning xotimasida muallif tomonidan quyidagicha ifodalangan:

Guzashta bud dar ta'rixi in hol,

Hazor-u yak sad-u shast-u shash sol[11: 375].

Tojikistonda saqlanayotgan ikki nusxa ham muallif hayotlik davrida ko'chirilgan, chunki 2395 raqamli inventar bilan saqlanadigan nusxaning oxirida uning ko'chirilgan davri va kotibining nomi ham qayd qilingan: "Tammat hazal nusxai sharifatul muboraka ba yaddul ahqarul zaif Muhammad Solih al Joni... fi asrul dorul xilofai holiyul shar' ... Muhammad Rahimxon..."

Bundan bilishimiz mumkinki, mazkur nusxa Muhammad Rahimxon hukmronligi davrida Joniy taxallusli Muhammad Solih nomli kotib tomonidan ko'chirilgan.

Xulosa. Salohiddin Salohiy tomonidan XVIII asrda yaratilgan mumtoz adabiyotimizning nodir asarlari qatoridan o'rin olgan ikki dostoni: "Gul va Bulbul" hamda "Yusuf va Zulayho" dostonlari o'z davrida va undan keyingi davrlarda juda mashhur bo'lganligi bois turli kotiblar tomonidan yurtimizning barcha viloyatlarida, shuningdek, qo'shni Tojikiston viloyatida saqlanmoqda. Nusxalarning barchasida umumiy mazmun saqlanib qolgan, ayrim joylarida esa kotiblar tomonidan qo'shimcha izohlar keltirilgan (Bu hol ko'pincha kitobning oxirida kuzatiladi).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жабборов Н. Ўзбек матншунослигининг долзарб муаммолари. "Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари" мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2016.

2. Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001.

3. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи (2-китоб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1964. 384-б.

4. Бобоев Тухта. Адабиётшунослик асослари — Тошкент: Ўзбекистон, 2002. -560 б.

5. Валихўжаев Б. Ўзбек классик адабиётида эпик поэзиянинг тараққиёти тарихидан. Филол.фан. д-ри ... дис-яси. –Самарқанд: 1967. 1-қисм. 310-б.

6. Муҳаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари (IX-XX асрлар). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. 128-б.

7. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent: 2006. 272-b.
8. Ravshanov P. Qarshi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 647-b.
9. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. – Toshkent: Fan, 1995. 784-b.
10. Rahmonova Sh. Falsafiy-irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati. // O'zbekiston. Til va madaniyat. 2022.2 (2): – B. 26-41.
11. Salohiy. Gul va Bulbul tasviri. O'zFASHB, toshbosma inv 577.
12. Ўзбек адабиёти хрестоматияси (XV–XIX асрлар). – Toshkent: Fan, 1945. 524-b.
13. Ўзбек адабиёти. 4 томлик. III том. – Toshkent: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959. 800-b.
14. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Toshkent: Fan, 1953. 454-b.
15. Форсча – ўзбекча ўқув луғати. 2-нашри. – Toshkent: Ўқитувчи, 1983. 232-b.